

# Ilm-fan rivoji yo'lida yangi bosqich: xalqaro hamkorlik mustahkamlanmoqda

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Rossiya Fanlar akademiyasining Ural filiali o'rtasida ilmiy hamkorlik to'g'risida muhim KELISHUV imzolandi.



Mazkur hujjat ikki tomonlama ilmiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Kelishuv doirasida:

- qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalari amalga oshiriladi
- ilmiy ma'lumotlar va nashrlar almashinuvi yo'lga qo'yiladi
- olimlar uchun ilmiy infratuzilmalardan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi
- kutubxonalar va arxivlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi
- qo'shma ilmiy ishlar tayyorlanadi
- konferensiya va seminarlar tashkil etiladi.

Ushbu hamkorlik ilm-fan rivoji, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlashda muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Rossiya Fanlar akademiyasining Ural filiali o'rtasida imzolangan kelishuv ikki tomonlama ilmiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.